

IJTIMOIIY HIMOYA SIYOSATIDA ISHSIZ FUQAROLARNI QO‘LLAB- QUVVATLASHNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI

Muslimbek ALIJONOV

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti v.b.dotsenti, tarix
fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Diyorbek NORMURODOV

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
‘Davlat boshqaruvi’ yo‘nalishi magistranti
muzaaffarovichdiyorbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda ijtimoiy himoya siyosatini modernizatsiya qilish jarayonida ishsiz fuqarolarni qo'llab-quvvatlash tizimini raqamlashtirishning o'rni va ahamiyatini chuqur va batafsil o'rganadi. Oxirgi yillarda mehnat bozori jarayonlarini avtomatlashtirish, bandlik xizmatlari faoliyatini elektron platformalarga o'tkazish, nafaqa va moddiy yordam tayinlashda shaffoflikni kuchaytirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotda mavjud adabiyotlar va statistik ma'lumotlar asosida raqamlashtirishning afzalliklari, mavjud muammolari hamda istiqboldagi va kelajakdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli xizmatlar ishsizlarni qo'llab-quvvatlash jarayonini tezlashtiradi, korrupsiya xavfini kamaytiradi va aholining ijtimoiy xizmatlarga teng huquqli kirishini ta'minlaydi. Raqamlashtirish siyosatida ishsizlar uchun alohida tizimni shakillantirish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ishsizlik, raqamlashtirish, elektron hukumat, bandlik siyosati, ijtimoiy xizmatlar, mehnat bozori

Аннотация: В данной статье всесторонне и детально изучается роль и значение цифровизации системы поддержки безработных граждан в процессе модернизации политики социальной защиты в Узбекистане. В последние годы осуществлены масштабные реформы по автоматизации процессов рынка труда, переводу деятельности служб занятости на электронные платформы, а также повышению прозрачности при назначении пособий и материальной помощи. На основе анализа существующей литературы и статистических данных в исследовании рассмотрены преимущества цифровизации, существующие проблемы, а также перспективные и будущие возможности её развития. Результаты исследования показывают, что цифровые услуги ускоряют процесс поддержки безработных, снижают риски коррупции и обеспечивают равный доступ населения к социальным услугам. Особо

подчёркивается важность формирования отдельной системы для безработных в рамках политики цифровизации.

Ключевые слова: *социальная защита, безработица, цифровизация, электронное правительство, политика занятости, социальные услуги, рынок труда*

Abstract: *This article provides an in-depth and comprehensive analysis of the role and significance of digitalizing the support system for unemployed citizens within the modernization of social protection policy in Uzbekistan. In recent years, large-scale reforms have been implemented to automate labor market processes, transition employment services to electronic platforms, and enhance transparency in the allocation of benefits and material assistance. Based on existing literature and statistical data, the study examines the advantages of digitalization, current challenges, as well as its prospective and future opportunities. The findings show that digital services accelerate the process of supporting unemployed individuals, reduce corruption risks, and ensure equal access to social services for the population. The importance of establishing a dedicated system for the unemployed within the framework of digitalization policy is also emphasized.*

Keywords: *social protection, unemployment, digitalization, e-government, employment policy, social services, labor market.*

Kirish. O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini modernizatsiya qilish davlat oldida turgan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ishsiz fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, ularga elektron xizmatlar ko'rsatish, bandlik imkoniyatlarini kengaytirish raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ishsizlik darajasining o'zgaruvchanligi, mehnat bozorining talab va taklif muvozanatidagi nomutanosibliklar raqamli yechimlar yordamida samarali boshqarilishini talab qiladi. Jahon tajribasida ham ijtimoiy siyosatni raqamlashtirish ijtimoiy xizmatlarning shaffofligini oshirish, resurslarni optimallashtirish va fuqarolarning ehtiyojga asoslangan qo'llab-quvvatlovini kuchaytirishning muhim omili sifatida qaraladi. Ushbu maqola O'zbekistonda ishsizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini raqamlashtirish jarayoni, uning natijalari va istiqbollari haqida ilmiy-nazariy tahlilni taqdim etadi.

So'nggi yillarda ijtimoiy siyosatning raqamlashtirilishi bo'yicha xalqaro ilmiy ishlar jadal ravishda ko'paymoqda. Jahon banki, XMT (ILO), BMT Taraqqiyot Dasturi materiallarida raqamli ijtimoiy himoya tizimlari samaradorligi, xususan, ishsizlik bo'yicha yordam ko'rsatish mexanizmlari raqamlashtirilishi dolzarb masala sifatida qayd etiladi. Raqamli platformalar yordamida ishsiz fuqarolarni ro'yxatga olish, ularga mos bo'sh ish o'rinlari taklif qilish, o'qitish va qayta tayyorlash das turlariga yo'naltirish imkoniyati yuqori darajada oshgani tadqiqotlarda ta'kidlanadi [1].

O'zbekistonda esa "Yagona ijtimoiy reyestr", "Mehnat.uz", "Ishga marhamat" platformalari bo'yicha ilmiy tahlillar raqamlashtirish mehnat bozori boshqaruvini yengillashtirganini ko'rsatadi. Biroq, ayrim olimlar, xususan, regional ijtimoiy tengsizliklar, raqamli savodxonlikning yetarli emasligi, ma'lumotlar integratsiyasidagi uzilishlar kabi muammolarni qayd etadilar.

Adabiyotni o'rganish. Tadqiqot sifat tahliliga asoslanib, mavjud adabiyotlar, davlat statistika ma'lumotlari, mehnat bozoriga oid normativ-huquqiy hujjatlar va raqamli platformalarning funksional imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, xalqaro tajriba bilan taqqoslash orqali O'zbekiston amaliyotidagi afzalliklar va kamchiliklar baholandi. 2017-yildan boshlab O'zbekiston hukumati ijtimoiy himoyalash tizimini modernizatsiya qilish yo'lida keng ko'lamli islohotlarni boshladi. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ijtimoiy himoya sohasida muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi [2]. Harakatlar strategiyasidan ko'zlangan maqsad ham avvalo jamiyatda insonlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz shaxslarni ish bilan ta'minlash va ularga moddiy ko'mak berish borasida alohida qism ham ajratilganligi ishsiz fuqarolarga ko'rsatilayotgan e'tibor. Sohoni esa raqamlashtirish jamiyatda korrupsiyani oldini olish va yordamga muhtoj ishsiz oilalarga ko'rsatilayotgan yordamning to'g'ri yetib borishini ta'minlashdan iborat.

Asosiy qism. Davlatning ijtimoiy siyosati qashshoqlikni kamaytirish, ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, raqamlashtirish orqali shaffoflikni oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi asosiy maqsadlarga yo'naltirilgan. 2017-yildan boshlangan "Harakatlar strategiyasi" qashshoqlik darajasini pasaytirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Masalan, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sharoitida 1,6 million oilaga moddiy yordam ko'rsatilib, qashshoqlik darajasi 17 foizdan 14,5 foizga tushirildi (World Bank, 2024). 2022-yilda qabul qilingan "Milliy ijtimoiy himoya strategiyasi" ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish va maqsadli yordam mexanizmlarini joriy etishga xizmat qildi. Shu yilning 1-sentabridan onalik nafaqasi ijtimoiy sug'urta tizimiga bog'lanib, minimal iste'mol savatiga asoslangan holda hisoblanadi (UNICEF Uzbekistan, 2022) [3]. "Ijtimoiy himoya yagona reestri" tizimi 2022-yil 10-martda Moliya vazirligiga topshirilib, 2023-yilda 2 milliondan ortiq arizani qayta ishlash orqali yordam taqsimotida shaffoflikni oshirdi (UNICEF Uzbekistan, 2022). Nazarda tutilayotgan asosiy masala "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilayotgan oilalarni haqqoniy moddiy ahvolini aniqlash, Ijtimoiy himoya yagona reestriga kiritilmagan arizasi rad etilgan oilalarni mahalladan tashqari alohida guruh shaklida o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [4].

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib hamda ijtimoiy himoya sohasida tizimli islohotlarni izchil davom ettirish va yanada takomillashtirish, aholining ijtimoiy

himoya olish huquqlarini ta'minlash, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda samarali idoralararo muvofiqlashtiruvchi tizimni yaratish maqsadida Ijtimoiy yordamga muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish;

Majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish;

Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish; Nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish hamda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash;

Aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash; Ijtimoiy xizmatlarni aholiga bevosita mahalla darajasida ko'rsatish amaliyotini joriy etish.

Natijalar. Raqamlashtirishning afzalliklari:

Shaffoflikning oshishi: nafaqa tayinlash, ishsizlikni ro'yxatga olish jarayonlarida inson omili kamaydi.

– Tezkorlik: elektron murojaatlar va avtomatik moslashtirilgan bo'sh ish o'rinlari tizimi ishsizlarga xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirdi.

– Ma'lumotlarning bir markazda to'planishi: "Yagona ijtimoiy reyestr" orqali fuqarolarning ijtimoiy holati aniq baholanadi.

– Malaka oshirish imkoniyatlari: onlayn kurslar va qayta tayyorlov dasturlarining kengayishi mehnat bozorining raqobatbardoshligini oshiradi.

2. Mavjud muammolar

– Raqamli savodxonlik pastligi: ayrim hududlarda elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan.

– Texnik infratuzilma yetishmasligi: internet sifati va platformalarning barqarorligi ba'zan past bo'ladi.

– Ma'lumotlar almashinuvi muammolari: idoralararo integratsiya to'liq yo'lga qo'yilmagan.

– Istiqboldagi imkoniyatlar

– sun'iy intellekt asosida ishsizlarga mos ish joylarini avtomatik aniqlash;

– raqamli ko'nikmalarni ommalashtirish uchun davlat dasturlarini kengaytirish;

– mahalliy darajada ijtimoiy xizmatlarni to'liq raqamlashtirish.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishsiz fuqarolarni qo'llab-quvvatlashni raqamlashtirish ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda va hukumat buni kuchaytirish borasida sezilarli harakatlarni olib bormoqda. Elektron platformalar ishsizlarni ro'yxatga olish, ularga xizmat ko'rsatish, o'qitish va bandlikka yo'naltirish jarayonlarini soddalashtirdi hamda shaffofligini

kuchaytirdi. Biroq, raqamli infratuzilmani kuchaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va ma'lumotlar integratsiyasini to'liq yo'lga qo'yish hali ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Kelgusida raqamli ijtimoiy siyosatning kengayishi ishsizlikka qarshi kurashishning samarali modelini yaratishga xizmat qiladi. Xulosa qilib shuni aniq aytish mumkinki ijtimoiy himoya siyosatida ishsizlarni aniqlash va ularni raqamlashtirishni takomillashtirish davlat oldida turgan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sharipov O. O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyalash tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati. "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar" ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -Innovative Academy, 2023. 44-45-betlar. DOI: 10.5281/zenodo. 15496404
2. O'roqov, F. O. (2025). O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy himoya to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar. *Ta'lim Taraqqiyoti*, 1(2), 68.
3. Jahon banki. Digital Social Protection Systems: Global Review.
4. International Labour Organization. Employment and Digital Transformation.